



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Olimov Shirinboy Sharofovich

*BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori.  
Elektron pochta manzili: shirinboy71@mail.ru  
Tel raqami: (90) 718-59-70*

## MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYaNING MUHIM TARKIBIY QISMLARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasining muhim turi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyatda tutgan o'rni va zaruriyati to'g'risida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashning ahamiyati yoritilgan. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari hisoblangan aql-zakovat, xulq-odob, iymon-e'tiqod, sharm-hayo, or-nomus, mehr-shafqatlilik, poklik va halollik odobi kabilarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** jamiyat, ta'lif, tarbiya, rivojlanish, ma'naviyat, axloq, aql-zakovat, xulq-odob, iymon-e'tiqod, sharm-hayo, or-nomus, mehr-shafqatlilik, poklik va halollik, odob.

### **ВАЖНЫЕ СОСТАВЛЯЮЩИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ**

#### **Абстрактный**

В данной статье высказываются мнения о роли и необходимости духовно-нравственного воспитания в обществе, которое считается важным видом воспитания зрелого поколения. Также была подчеркнута важность воспитания студенческой молодежи зрелой с духовно-нравственной точки зрения. Раскрыто содержание-сущность интеллекта-интеллекта, поведения-порядочности, веры-убеждения, стыда-порядочности, чести-честности, любви- сострадания, чистоты

и честности нравов, которые считаются важными составляющими духовно-нравственного воспитания.

**Ключевые слова и фразы:** общество, образование, воспитание, развитие, духовность, этика, интеллект, манеры, вера, стыд, честь, доброта, чистота и честность, манеры.

## IMPORTANT COMPONENT PARTS OF SPIRITUAL-MORAL EDUCATION

### **Abstract**

In this article, opinions are expressed about the role and necessity of spiritual and moral education in society, which is considered an important type of education of the mature generation. Also, the importance of educating young students to be mature from a spiritual and moral point of view was highlighted. The content-essence of intellectual-intelligence, behavior-decency, faith-belief, shame-decency, honor-honor, love-compassion, purity and honesty manners, which are considered important components of spiritual and moral education, has been revealed.

**Key words and phrases:** society, education, upbringing, development, spirituality, ethics, intelligence, manners, faith, shame, honor, kindness, purity and honesty, manners.

**Kirish.** Bugungi oldimizda turgan buyuk va ezgu maqsadlarimiz – huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini qurish, obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayotni ko‘rish, mamlakatni jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun, avvalambor, barkamol avlod, o’sib-unib kelayotgan farzandlarimizni yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlari insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Chunonchi, ma’naviy-axloqiy tarbiyalangan shaxs xalqimizning madaniyatini yuksaltirishda, millat va ona-Vatan oldidagi burch, majburiyat va mas’uliyatni anglaydi. Ya’ni, ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsdagি bunyodkorlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik g‘oyalarining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydigan va yetuklikka, komillikka yetaklaydigan, aniq maqsadni o‘zida mujassam etgan jarayon hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni, muayyan kategoriylar (tarkibiy qismlar) da mujassamlashgan. Bu kategoriylar odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning ma’naviy-axloqiy kamoloti, tarbiyalanganlik darajasi ushbu kategoriylar elementlarining qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o‘rinda bu kategoriyalarning mazmuni ustida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismi **aql-zakovatdir**. Aql-zakovat moddiy va ma’naviy dunyodagi narsa va hodisalarning mohiyat-mazmunini anglash omilidir. Inson o‘z aql-zakovati yordamida fan va texnika yutuqlarini, ijtimoiy tajribalarini o‘rganib, o‘zlashtirib, ma’naviy-axloqiy hayotning tub mohiyatini tushunib boradi. Natijada o‘z hayotini, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini ongli boshqarishga odatlanadi. Aql-bilimlar yordamida charxlanib qarashlar, tasavvurlar, tajribalarni shakllantiradi. Ularning ijobiy, salbiy tomonlarini anglashga ko‘maklashadi. Aqlilik ilm o‘rganish orqali takomillashib, insonlarning ongli hayoti va rahbari najotini tashkil etadi. Shuningdek, aql-idrokni tantana qilishini ishonchga aylanishini ta’minlaydi. «Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, - deb yozadi, o‘zbek tarbiyashunosi Abdulla Avloniy, - ruh ishlovchi, aql boshlovchidur. Inson aqli ila din va e’tiqodini mahkam qilur, shariat hukmlariga bo‘ysunur... Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vassalam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlingizga tavoze’ qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz» [16, 17].

Darhaqiqat inson aqlning quli bo‘lsa o‘z nafsi jilovlay oladi, yomon odatlardan uzoqlashadi. Shu sabab har narsa aql va ilm soyasida ko‘paysa, qimmatbaho va e’zozli bo‘ladi. Aql ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda faollik ko‘nikmalarini hosil qiladi hamda insonning jamiyat, davlat, xalq, millat oldidagi burchini, majburiyatini anglashga ko‘maklashuvchi kuch. Aql - zakovat o‘z navbatida ma’naviy-axloqiy barkamol inson fazilatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida insonning mohiyatini teranroq anglash, uning shaxs sifatida shakllanib, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashga muhim qurol bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, jamiyatdagi insonlarning hammasini ham bir qolipda aql-zakovatli qilib rivojlantirish mushkul. Shunga ko‘ra jamiyatni o‘zini ham birdaniga ma’naviy-axloqiy yuksalishga erishtirib bo‘lmaydi. Xuddi shuning uchun unga intilish juda katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq holda ro‘y beradi va ana shu intilish, mehnat natijasida umumiylar ma’naviy-axloqiy rivojlanishda ancha ijobiy muvaffaqiyatlarga erishila boriladi. Agar inson aslida yaxshi odam bo‘lsa, ya’ni hayotda faqat yaxshi niyat, orzu, maqsad bilan yashashni o‘ziga kasb qilib olgan bo‘lsa, uning nasl-nasabi, oilasi, birodarlari, hamkasblari ham aksari shu yo‘ldan boradi, yaxshiliklar, ezguliklarni amalga oshiradi. Chunki, xalqimizning «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan maqoli bejizga aytilmagan. U hayot tajribalarining nashidasi sifatida insonni, jamiyatni kamolotga yetkazadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir tarkibiy qismi **xulq-odobdir**. Xulq-odob ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida har bir insonning o‘zida yoki jamoa bilan muloqotidagi o‘zini tuta bilishida, yurish-turishida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan, jamiyat axloqiy me’yorlarining kodeksidir.

Xulq-odob bezagi, odob xulq ko‘zgusi deydi donishmand xalqimiz. Ular birgalikda yetuklik, ezgulik, insoniylik namunasini tashkil etadi. Xulq-odob aql bilan paydo qilinadi. Ular aqlning suyanchig‘i hisoblanadi. Shunga binoan «Odob bozorda sotilmas», «Odob yo‘qning aqli yo‘q», «Odobsiz aql - aqlsiz odob yo‘q « naqllari xalq o‘rtasida keng tarqalgan.

Odob arabcha adab so‘zidan olingan bo‘lib, yetuklik, ezgulik, poklik, ma’naviylik mezoni hisoblandi. Odobsizlik axloqiy tubanlashishga olib keladi. Axloqiy tubanlashish insonning o‘z faoliyatida o‘zgalar bilan munosabatida iymon, andisha, insof, sharmu hayo, diyonat kabi insoniy fazilatlar chegarasidan chiqishdir. Beodoblik tug‘ma xususiyat emas, balki tarbiyasizlikning, loqaydlik, elga e’tiborsizlikning natijasidir. Agar inson beodob kishilar ichida o‘sib-ulg‘aysa, voyaga yetgach uning vujudiga o‘rnashib olgan axloqsiz, badfe’llik illatini chiqarib tashlash qiyin kechadi.

Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek, «Xulq inson nafsining ko‘zga ko‘rinmaydigan, aql bilan boshqariladigan bir suvrati. U shariati Islomiyada «axloqi hasana» - yaxshi xulqlar deb atalib: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va viqor, itoat, haqshunoslik, xayrihohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afv» [2,16] kabi sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Odob-xulqiy go‘zallikning namunasidir. Odob insoniyat toji va odamiylik bezagi. Kundalik hayotda axloq qoidalariга rioya qilish – odobdir. Axloqiy barkamol kishilargina odobi bo‘ladilar.

Kundalik hayotimizda uchrab turadigan o‘zimiz bilib - bilmaydigan, ammo ijtimoiy turmushda har doim qo‘llashimiz zarur bo‘lgan xulq - odob qoidalari mavjud. Ana shu qoidalarni o‘z faoliyatida singdirishi uchun insonga aniq maqsadga qaratilgan harakat zarur. Oddiy voqeadan buyuk kashfiyotni kashf etish mumkin bo‘lmas, ammo oddiy harakat, chiroqli xulq-odob yordamida yirik muvaffaqiyatga erishish mumkin. Shuning uchun inson xulq-odob bobida mayda-chuydalarga bee’tibor bo‘lmasligi kerak. Mayda-chuydalarni ko‘zdan qochirmaslik har bir insonda hushyorlikni oshiradi. Xulq-odobda har bir narsa muhim hisoblanadi.

Tarbiyalangan kishining har bir kichik xulq-odobi boshqalarda unga e’tiborni tug‘diradi. Shunga ko‘ra tarbiya topgan, odobli, hurmatli bo‘lishga intilish har bir yoshning odatiga aylanmog‘i lozim.

Xulq-odob insonlarni qalban bir-biriga bog‘laydigan ruhiy manba hisoblanadi. Shu bois donolar ta’kidlaydi: Insonda odob bo‘lsa, unda aql bo‘ladi. Odob aqlga bog‘liq. Aql ustiga odob qo‘shilsa nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Ulug‘lik aql-u odob bilan oshadi. Aql ma’naviy meros, odob esa uning amaliy ko‘rinishi. Ijtimoiy hayotda, aql va odob bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

Shu bois buyuk shaxslarning faoliyati, o‘zgalarni o‘ziga ergashtirish mahorati, chuqur bilimdonlik bilangina emas balki mukammal axloqi va odobi bilan bog‘langanligi hech kimga sir emas. Ilohiy bilim egalari, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom, tasavvuf ta’limoti namoyondalari, buyuk sarkarda Amir Temur, g‘azal bo‘stonining posboni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, futuvvat ilmining donishmandi Husayn Voiz Koshifiy va boshqa allomalar, buyuk ajdodlarimiz yetuk xulq-odob egalari bo‘lganlar. Ular ibratli xulqlari, yetuk aqllari, odoblari bilan ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda hech qachon so‘nmaydigan buyuk meros qoldirganlar. Shuning uchun ularning hayot solnomalarini o‘rganish, xulq-odob to‘g‘risidagi ta’limotlaridan xabardor bo‘lish, nafaqat bizni barkamollikka yetaklaydi, balki jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, xulq-odob ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida huquqiy-demokratik davlatni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini qurishning muhim manbai bo‘lib hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir tarkibiy qismi **iymon-e’tiqoddir**. Iymon - qalbning duri, insoniy mukammallik, ezgulik, halollik, yaxshilik, poklik kaliti. E’tiqod – bu o‘z fikr va qarashlariga mahkam, sobitqadamlik bilan ishonish va o‘zgalarni ham o‘zidek hisoblab, ularning lavziga samimiyat bilan ishonishdir. E’tiqodli odam eng avvalo yolg‘on gapirmaydi. Yolg‘on so‘zlamagan odam o‘zgalarni ham rostgo‘y deb biladi. Lafzida turmaydigan kimsani beburd deb hisoblab, undaylardan hazar qiladi.

«... e’tiqod jur’atni, mardlikni, fidoyilikni taqozo qiladi. Bularsiz u quruq g‘oya bo‘lib qolaveradi» [4,25]. Shu ma’noda iymon va e’tiqod tushunchasi bir-biriga yaqin, chunki ularning har ikkisining mazmunida diyonat, vijdon, insof, mehr-oqibat, muruvvat, ezgulik, saxovat,adolat, poklik va halollik, kamtarlik kabi insoniy tuyg‘ular mavjud.

Iymon arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosи - ishonchdir. Iymon insonning o‘z e’tiqodiga tayangan holda o‘zgalarning niyati, qilgan ishlariga, o‘zining faoliyatiga, xatolariga, xatti-harakatlariga munosabat bildirishidir.

Tayinki, ma’naviyat axloq, odob, burch va mas’uliyat tuyg‘usi, bilim va tajriba asosida shakllanib, inson ruhiy olamining ichki negizini tashkil etadi. U iymon-e’tiqod asosida barqarorlashsa, insonning jamiyatdagi o‘rnii, maqsad-muddaolari, intilishlarining yo‘nalishini belgilovchi omilga aylanadi. Shunday qilib, iymon-e’tiqod insonning insoniyligini anglatadi. Chunonchi, iymon-e’tiqodli kishida halollik, diyonat, mehr-oqibat, saxovat, muruvvat, vijdon,adolat barqaror bo‘ladi. Insonning mohiyati uning iymonligi bilan o‘lchanadi. U inson umrining ma’nosи, olamdagи o‘rnini mukammalroq anglash kuchli bo‘ladi.

«Ma’naviyat asoslari» o‘quv qo‘llanmasida keltirilishicha, Qur’oni karimda iymon mohiyati quyidagicha izohlangan: «Chin ko‘nglim ila imon keltirdim: Allohi taologa va uning farishtalariga va uning kitoblariga va uning payg‘ambarlariga ham bu dunyo yo‘q bo‘lib oxirat kuni bo‘lmog‘iga va qadarga, ya’ni yaxshi va yomon ishlar har qaysisi Allohu taolo tomonidan bo‘lmoqligiga va o‘lgandan so‘ng qabrdan tirilib va bularning hammasi haqiqat ekaniga, dilim birla guvohlik berurman, albatta, Allohdan o‘zga hech ma’bud yo‘qdir. Yana guvohlik beraman, albatta, Muhammad Alloh taoloning bandasi va barcha bandalariga din axkomlarini o‘rgatmoq uchun yuborilgan payg‘ambardir» [5,171]. Diniy iymonda bandalar mo‘min, itoatkor, o‘z so‘zida turuvchi, poklik va halollikka intiluvchi, itoatga amal qiluvchi, hech qachon yolg‘onni tilga olmovchi, shariatni to‘la bajaruvchi, namoz o‘quvchi, iloji bo‘lsa haj safariga boruvchi, ro‘zani bekamu-ko‘st bajaruvchi, sadaqa beruvchi va h.k bo‘lishi darkor. Agar inson diniy iymon egasi bo‘la turib, diniy amallarni bekamu-ko‘st bajarsa-yu, ammo e’tiqodga samimiylilik ko‘rsatmasa, ya’ni o‘zining diniy shaxs hisoblab, duoni pulga sotish bilan shug‘ullanib, boshqalar hisobiga kun kechirib yursa, halol bilan haromning farqiga bormasa, birovlarning haqidan hazar qilmasa, bajargan ishi uchun ta’mal qilsa, aldamchilik, subutsizlik qilib, birovlarni g‘iybat qilsa, tuhmatdan tap tortmasa, xo‘jako‘rsinga namoz o‘qib, amallarni yuzaki, riyokorona bajarsa, yolg‘on gapirishdan qo‘rqmasa, bunday inson iymonli bo‘la olmaydi. Zero, iymon-e’tiqod uning samimiyligida. Namozni, Allohdan jannatni so‘rash uchun yoki amallarni gunohlarini yuvish uchun bajarish hech qachon iymonli kishining ishi emas.

E’tirof etish joizki, hech bir kimsa moddiy va ma’naviy manfaatni ko‘zlamay biror ishni amalga oshirmaydi. Insonning har ishining mazmunida manfaatdorlik yashiringan. Shuning uchun ham «Hayot – manfaatlar kurashidir» deb aytishga haqqimiz bor, deydi «Saodatga eltuvchi bilim» kitobining muallifi Abdulhay Abduraxmonov. «Insof,adolat,xolisona yaxshilik,bir-biriga yordam,sadaqa,exson-bularning barisi bamisol – niqob bo‘lib, barining chuqur zamirida, yuqorida aytganmizdek, manfaatdorlik, ya’ni boylik, amal-mansab uchun kurash va shon-shuhratga intilish, ta’mal, ba’zan esa riyo yotadi.

Inson, hatto toat-ibodatni, yaxshilik va ezgulikni ham zaruriyatsiz qilmaydi, uni foniylar dunyodagi jannat ta’masida qiladi. Yolg‘iz Allah taoloning diydoriga yetishish uchun ozginagina kamolga yetgan mashoyixlar, aziz-avliyolar beta’mal harakat qiladilar, xolos. Ko‘ryapsizmi, ular ham besababdan-besabab emas, balki «Allahning diydoriga yetishish uchun, narigi dunyoda huzur-halovatda hayot kechirish» ta’masida ijobjiy, ezgu ishlarni qiladilar.

Bularning barisining zamirida moddiy, ma’naviy manfaatdorlik yotar ekan, «Qachon yo‘q bo‘lasan, ey nafs!», «Qachon umring tugaydi ey nafs!», «Qachon sendan qutulaman, ey nafs!», deb hayqirging, keladi.

Ammo bunday deb hayqirmay qo‘yaqoling. Barcha narsalarning avvali-oxiri, ibtidosi-intihosi bo‘lganidek, nafsnig ham oxiri bor, uning ulushi hali qat’iy qilib belgilab qo‘yilgan. Nafs degan shaytoniy sifat bu dunyo tugab oxirat - qiyomat ro‘y bergandagina tugaydi, dunyo bilan birga o‘ladi. O‘shandagina unga qarshi urush e’lon qilib, uni butunlay yenga olmasak, u bizga butunlay g‘olib bo‘lib qolmasligi va unga qurbon bo‘lib ketmasligimiz uchun jangni davom ettiraveramiz» [1,551].

Muallifning bu sermulohaza fikrlariga qo‘shilish bilan, insonning iymoni e’tiqodga aylangan taqdirda nafsdan to‘la qutulmog‘i mumkin deb e’tiroz bildiramiz va fikrimizni quyidagi manbalarda bayon etilgan lavhalar bilan dalillaymiz. Chunonchi, Tohir Malikning «Shaytanat» romanining uchinchi kitobida hikoya qilinishicha buyrak saratoniga chalingan Asadbekni davolash uchun, Abdurahmon tabibning ko‘rsatmasi bilan uning do‘sti Jalil Buxorodan yamoqchi Xayimdan to‘rt kunda Abdullaxon zarb etgan tilloni olib keladi. «Tabib Jalil keltirgan tilla tangani yuvib, artib chiroqqa tutdi. Oltin tovlanib ko‘zni oldi. Abduraxmon tabib katta kosada tayyorlab qo‘ygan dori bilan kichik egovni olib kelib, tangani ularning ko‘zi oldida egovladi. Yetarli miqdorda egovlagach oltin zarralarini doriga aralashtirib chetga olib qo‘ydida, tangani Asadbekka uzatdi:

- Olib qo‘ying, inim.
- Sizda qolaversin, rozimiz, - dedi Asadbek.
- Yo‘q, inim, bu yerda qolmasin.
- Yana birorta kasalga ishlatarsiz?
- Agar lozim bo‘lsa, odam jo‘nataman, - dedi tabib.
- Buni sotib, masjidga ishlata qolinglar,- dedi Jalil.
- Masjidga peshona teridan topilgan mablag‘ bo‘lsa, tashlab ketarsiz...

Xullas, Abduraxmon tabib tangani ham olmadi, «Xudo yuborgan mehmonlardan pul olsam, qiyomatda Allohimning ko‘ziga qanday qarayman?» deb, «qo‘l haqi», «Nazir» deyilguchi pulni ham olmadi» [7,281-282].

Bu lavhada inson qachonki iymon - e’tiqodni nafsdan, ta’madan yuqori qo‘ysa, u komillik sari qadam tashlagan bo‘ladi degan fikr yotadi. Yoki A.Muxtorov «Milliy istiqlol g‘oyasining ma’naviy omillari va shaxs tarbiyasi» maqolasida keltirgan misolida ham buni kuzatishimiz mumkin. «Chunonchi, - deb yozadi A.Muxtorov, - «Orifnama» kitobida keltirilishicha «Mashhur tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov shunday yozadi. Robiyaiy Avliyo ismli ilohiyat ilmining namoyondasi Allohga murojaat qilib, «Agar men sening jannatingdan umidvor bo‘lib, senga ibodat qilayotgan bo‘lsam, sen meni do‘zaxingning eng tubiga tashlagin». Rivoyat qilishlaricha Robiyaiy Avliyo haj safariga otlangan paytda har o‘n ikki qadam yurgandan so‘ng joynamoz solib namoz o‘qib ketgan. Alloh taolo Robiyaning bu

mehnatlarini ko'rib, tavof qilish uchun ka'baning o'zini uning huzuriga keltirgan» degan ekan.

Bu misollardan muddao shuki, agar inson o'z nafsinu tiyib, undan iymon-e'tiqodni afzal ko'rsa, u haqiqiy odam, ma'naviy-axloqiy fazilati yuksak, komil insonga aylanadi. Buni biz Hazrat Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazi va «Lison-ut tayr» qissasidagi qahramonlar misolida ham kuzatamiz.

Darhaqiqat, iymon-e'tiqod insonlar qalbida saxovat, muruvvat, urug'larini sepib, ularni saodat va salomatlik bo'stoni sari yetaklaydi. Zero, Rasuli Akram Nabiyii muhtaram, salollohu alayhi vassalam afandimiz: «Alloohni ko'z oldindan ko'rib turgandek ibodat qil, zero ki sen uni ko'rmasang ham, ul seni ko'radur, nafsingni o'lgan hisob et demishlar».

Darhaqiqat, inson haqiqiy baxtini iymon-e'tiqoddan topadi. Uning vijdoni, irodasi, aql-idroki toblanib ulug' ishlarga jur'at etadi.

Hammaning qalbida iymon urug'i bor. Bu urug'ni qanday parvarish qilish, o'stirib, ulg'aytirish inson e'tiqodiga bog'liq. Iymonli bo'lish har qanday sharoitda uni e'tiqodga aylantirish, yangi davr taqozo etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni fikrlash, uni amalda qo'llay olishga bog'liq.

Iymon tushunchasini dunyoviy mohiyatini teranroq anglash uchun, uning mazmunida ifodalangan sharm-hayo, mehr-shafqat, poklik va halollik, kamtarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik,adolat, mehnatga halol munosabatda bo'lish, tafakkur, dunyoqarash kabi fazilatlar mohiyatini tushunib yetib, ularning jamiyatda osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlab, insonlarda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorlikni tarbiyalayotganini tajriba ko'rsatayotganini tahlil qilmoq kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi **sharm-hayodir**. Sharm-hayo - diniy va dunyoviy iymonlilik belgisi hisoblanib, kishini chinakam, bosh harflar bilan yoziluvchi INSON bo'lib kamol topishiga qaratilgan. Chunonchi, sharm - insonning nojo'ya ishlardan, xatti-harakatlardan o'zini tiya bilish, o'zgalar qoshida qilgan ishidan noqulaylik sezish hissidir. Muqaddas manbalar (Qur'oni karim, Hadisi Sharif)da yozilishicha, inson eng avvalo o'zidan uyalish hissini tuya olishi lozim. Nojo'ya, yomon ishi, xatti-harakati kishida uyalish hissini uyg'otsa, demak u iymonli hisoblanadi. O'zidan uyalmagan odamda sharm bo'lmaydi. Demak, sharmli odamda diyonat, iymon, vijdon kuchli bo'ladi.

Hayo – iymonlilikning ulug'i bo'lib, nafsni tiyish, uyatli ish qilishdan tortinish, yomon ishlarni tark etish, nomus sharafini saqlash kabilarni anglatadi. Hayo ayollarning ko'rkidir. Erkak kishilar bemalol aytadigan ba'zi gaplarni, ayollar hayo tufayli aytishga iymanadilar. Ularga hayo yo'l bermaydi. Hayo, ibo - barkamol xulqqa ega bo'lgan kishi ruhining tafakkuri, ma'naviy timsoli hisoblanadi. Hayoli bo'lish insonni hayvon kabi tubanlashib ketishdan asraydi. O'z xatti-harakati, nojo'ya ishidan

uyalish hissi faqat insonlarga gina xos fazilat. Sharm-hayoga o'rgatish oiladan boshlanadi. Bunga ona mutasaddi bo'lishi kerak. Zero, onaning o'zi hayoli bo'lmog'i darkor, shundagina u xonodon gultoji bo'lishi mumkin. Hayotning achchiq - chuchuklariga bardosh bergan, uning sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan ayolgina hayoli hisoblanadi. Bunday ayollarни xalqimiz hayoli, vafoli deb ulug'laydi. Ular o'z hayolari bilan xonadonga fayz keltiradilar. Hayo – poklik, soflik, sabr-bardosh, qanoat, sadoqat, muhabbat, vafo ramzidir. Ayol kishidan hayo ketsa, oilada sadoqat, muhabbat, or-nomus toptaladi. Ayrim ayollar hayosizlik tufayli, jufti halollari, farzandlari yuzlariga oyoq qo'yib, nojo'ya ishlarga qadam qo'yadilar. Nafs balosiga chalinib, qadrlarini, nomuslarini yerga uradilar, qabohat ishlariga yo'l qo'yadilar. Bu jirkanchlikdir. Hayosizlik vafosizlikni olib keladi. Shu bois ulug' shoir Alisher Navoiy «Hayosizda vafo yo'q. Vafosizga hayo yo'q» deb ta'kidlaydi. Hayo – iymonlilik timsoli. Payg'ambarimiz, «Hayo iymondandir, iymon esa jannatga eltadi», «Hayo bilan iymon bir-birini to'ldiradi va takrorlaydi, biri ketsa, ikkinchisi ham ketadi» deb bejiz aytmaganlar. Hayo yosh nihol qalbida, tuyg'usida, muhabbatida, sadoqatida bezak bo'luvchi, uni insonlikka yetaklovchi qalb ko'zgusi. Hayoli kishi, u erkak bo'ladimi, ayol bo'ladimi, doimo yaxshilikka, ezgulikka, iymonga intilib yashaydi. Hayo – odobli, yaxshi xulqqa ega bo'lgan inson ruhining tafakkuri, ma'naviy olamining timsolidir. Sharm-hayo insonlarni nojo'ya ishlardan saqlab turuvchi iymon kalitidir. Ba'zan ayollar hayosizlik-odobidan chiqib erlariga xiyonat qiladilar. Erkaklar esa hayo, sharm tushunchasini unutib go'zal xotinlari, iymonli ayollar bo'lgan holda foxisha ayollar bilan jinsiy munosabatda bo'ladilar. Bular xayosizlikning insonga xos bo'lmagan holati hisoblanadi.

«Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nuring ziyosiga muxtojdir. ...iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir», - deb yozadi Abdulla Avloniy [16,30].

Ulug' mutafakkir Ibn Sino hayo haqida fikr yuritib shunday yozadi: «Insonda doim porlab turadigan husn va latofat - hayo va iffatdir. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur». Demak inson go'zalligi, ma'naviy-axloqiy boyligining namunasi sharm va hayo hisoblanadi. Shu sabab jahon xalqlari ham o'zbeklarni shu sharmu-hayolari tufayli e'zozlaydilar, ularga hurmat bajo keltiradilar. Shunday ekan, farzandlarimizni, o'sib kelayotgan yosh o'g'il-qizlarimizni sharmu-hayoga o'rgatish har birimizni, har bir ota-oni, tarbiyachining asosiy vazifasi. Huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini barpo etishda Imon kaliti hisoblanmish sharmu-hayoning ma'naviy-axloqiy darajasiga e'tibor qaratish lozim. Shunday ekan, hayo ostonasi sari borish, hayosizlardan uzoqlashish har bir tarbiyali, iymonli insonning burchidir.

Imonli bo'lib, ma'naviy-axloqiylikni farz etishning yana bir jihatni **or-nomus** hisoblanadi. Or-nomusli bo'lish o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan,

narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg‘usidir. Or nojo‘ya harakatdan hazar qilishni ham anglatadi. Or-nomus insonlarni gunoh va buzuq ishlardan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni pok qiluvchi olmosdur. Or-nomusli kishida g‘urur kuchli bo‘ladi, u doimo ibrat nazari bilan ish yuritadi. O‘zini mavqeini saqlash, ulug‘lash ham or-nomusli kishining fazilatidir. Ko‘pincha, biror bir kishini uning ota-onasini yoki aka-ukasini, qarindosh-urug‘ini yoki xalqini haqoratlasalar, sha’nini kamsitsalar-u, u kishi beparvo, loqaydlarcha, yoki qo‘rqib indamay tursa, undaylarga nisbatan senda or-nomus, oriyat bormi o‘zi, deb xitob qilingan, har kimning qadri uning or-nomusi bilan o‘lchangan. Odatda oriyatli insonlar o‘zları, oilalarining izzat-nafslarini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, xalqlarining erkalarini qadrli tutganlar. Ularning kmsitilishi toptalishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Bunga misol tariqasida ota-bobolarimiz jasoratlarini ko‘rsatish mumkin. Ular qadimda or-nomusli, oriyatli bo‘lganlar, o‘z yurti, tuprog‘i, onalari va farzandlarini o‘zgalar tomonidan kmsitilishi, toptalishini o‘zları uchun or deb bilganlar. Shiroq, To‘maris afsonalaridagi qahramonlar, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va ular izdoshlarining ishlari shular jumlasiga kiradi. Bundan shu narsa nazarga tushadi-ki, or-nomus, oriyat mazmunida erksevarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari mujassamlashgan. Or-nomusli kishilar, o‘zlarini kmsitmaganlar.

Or-nomus e’tiqod darajasida yuksalib insonda, millatda mamlakat oldidagi burch va mas’uliyatni to‘g‘ri tushunish tuyg‘usini uyg‘otadi. Insonda g‘urur, mardlik, jasorat ko‘rsatish hissini rivojlantiradi. Natijada yosh avlod ajdodlari, xalqi, Vatani, Prezidenti oldida burchli ekanini anglab, bilimli bo‘lish, fan asoslarini chuqr egallash, texnika taraqqiyotiga, Vatan ravnaqiga, millat rivojiga o‘z hissasini qo‘shishga shaylanadi.

Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo‘lsam  
Sodiq o‘g‘lon o‘zbegin.  
Menga Pushkin bir jahon  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko‘ksim osmon o‘zbegin.  
Qayga bormay, boshda do‘ppim,  
Shuhratim, qadrim buyuk,  
Olam uzra nomi ketgan  
O‘zbekiston, o‘zbegin.  
– deb g‘ururlanadi shoir Erkin Vohidov. [3,337].

Diyonat vijdon ham iymonlilikning muhim jihatni va ma'naviylikning zaminidir. «Diyonat alloh huzurina yaqin qiladurgan muqaddas e'tiqoddurki, olamda mendan suyukli narsa yo'qdur», - deydi Abdulla Avloniy [2,17]. Diyonat insonni to'g'ri yo'lni tanlashni, har doim vijdonini pok saqlash va saodatga erishishga da'vatlovchi kuch. Diyonat va vijdon bir-biriga yaqin tushuncha bo'lib, odamlardagi insof tuyg'usiga hamohangdir. «Diyonat va vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun avvalo, o'zi oldida, qolaversa, oila, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir» [5,175].

Diyonat Haq tomonidan insonlarga tuhfa etilgan ilohiy fazilatki, u doimo to'g'ri yo'ldan yurish va saodatga erishishni ta'minlaydigan, saxovat, shafqat, muruvvat ko'rsatish, qanoatlanishni ta'minlaydi. Har bir inson o'z qilmishi, fe'l atvori bilan oila, jamoa, jamiyat va Vatan oldidagi mas'uliyatini vijdoni ila his etsa, u ma'naviy-axloqiy fazilatli inson sanaladi. Vijdon ijobiy xatti-harakatlarga undaydi, o'z faoliyatiga o'zi baho berish malakalarini shakllantiradi. Vijdonli kishi hayotda nohaqlik,adolatsizlikka murosasiz bo'ladi. Adolatsiz ishlardan g'azabga keladi. Chunki, nohaqliklardan vijdoni azob chekadi. Vijdon ko'p yoki oz bilimlilikka, oddiy yoki mashhurlikka, kambag'al yoki boylikka bog'liq emas. Vijdon ta'lim-tarbiya vositasida rivojlantiriladi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini vijdonli, diyonatli insonlarga doimo ehtiyoj sezadi.

Dunyoviy iymonli bo'lishning yana bir jihatni - **mehr-shafqatlilikdir**. Iymonli insonlarda mehr-shafqat tuyg'usi kuchli bo'ladi. Zero, bu fazilat o'zbek xalqiga xos xususiyat. Mehr-shafqat mazmunini qarovsiz qolgan otalar va onalarga, yetim-yesirlarga, g'ariblarga, boquvchisini yo'qtgan keksalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tashkil etadi. Mehr-shafqat bamisoliquyosh, notavonlarning qalbini yoritishga qaratilgan nurdir. Mehr-shafqatli bo'lish, ota-onaga, farzandlarga, Vatanga, qariyalar, nogironlarga yordam ko'rsatish, Qur'oni karim, Hadisi Sharif, tasavvuf ta'limotida ko'p bor takrorlanadi. Jumladan, Imom Buxoriy, «Kimki rizqim ulug', umrim ulug' bo'lsin, desa, qarindosh-urug'lariga mehr-shafqatli bo'lsin», - deb hadislarida bayon etganlar. Hech qanday moddiy boylikni, mehr-shafqat bilan almashtirib bo'lmaydi. Mehr-shafqat insonlarni har qanday xusumat, adovatdan, gina - qudratdan, fitna-yu adovatdan xolos qiluvchi, uni insoniylik, ezzulik sari yetaklovchi kuchdir. Shuning uchun ham keksa otaxon-u, onaxonlarimiz mehring ulug', nasibang butun bo'lsin, deb, mehr-shafqatli bo'lishga undaydilar va kishilarni duo qiladilar hamda bemehrlarni la'natlaydilar. Mehr-shafqat keksalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, nogiron-u, kasallarga saxovatni tarbiyalaydi.

Diniy va dunyoviy iymon udumlariga amal qilib, respublikamizdagi ota-onasiz qolgan bolalarga, keksalarga, nogironlarga, mamlakatimiz rahbariyati, saxovatli

insonlar, xalq tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy va ma'naviy yordam mehr-shafqat namunasi bo'lib hisoblanadi. Shular jumlasiga ko'krak saratoniga uchragan ayollarga ko'rsatilayotgan yordamlar ham kiradi.

Dunyoviy iymon mazmunidan o'rin olgan yana bir xususiyat **poklik va halollik odobidir**. Poklik va halollik bu tanani, nafsni, kiyimlarni, xulqni, ko'ngilni, lafzni, toza tutishni nazarda tutadi.

Poklik va halollik zehn va idrokni o'tkir qilib, e'tibor va shuhratga olib boradi. Tanani pok saqlash esa salomatlik garovi. Nafsni pok saqlash xotirjam va halovatli hayot asosi. Lafzni pok saqlash insonni dard, alam, subutsizlikdan saqlaydi. Inson ta'ma molparastlikdan lafz pokligi tufayli yiroq bo'ladi. Ma'naviy poklik go'zal xulq axloqiylik ziyyosidir. Yirtiq, eski kiyimlarni kiyish ayb emas, ammo yangi kiyimlarni iflos, kir holda kiyish katta ayb va gunoh hisoblanadi. Chunki, bu sharoitga nosog'likni, nasroniylar ko'ziga odobimizni chirkin qilib ko'rsatish demakdir. Poklik harom-harishdan saqlanmoqlik demak.

Shu bois insonning qalbi ham, ishi ham, amali ham, o'zi ham pok bo'lishi, nopolikidan yiroq bo'lishi darkor.

Poklik va halollik o'zbek xalqining azaliy odatlaridan bo'lib, uning ongi, qalbi, g'ururining asosini tashkil etgan. Hayotda poklik va halollik shaxsning insoniyligiga zarracha dog' tushishiga yo'l qo'yagan, fikri, ishi, qalbi, hayoti pok insonlar xalqning, davlatning, jamiyatning faxri, g'ururi hisoblangan va iymonli kishilar sirasiga yetaklagan. Shu bois xalq o'rtasida «qalbi pokning – ishi pok» degan naql yetakchi.

Xulosa shuki, poklik, halollik, iymonli kishining muhim ma'naviy-axloqiy fazilatidir. Insondagi yaxshi va yomon odatlar uning pokligi va halolligiga bog'liq. Ba'zan g'alamislar, shaytoniy tuyg'ular bilan nafas oluvchi insonni iymonidan judo qilib, uni yomon yo'llarga, odatlarga undaydilar. Poklik va halollik g'alaba qilsa, u bu nohalovat yo'llarga kirmaydi. O'zini sobitfikrlilik bilan halol va pok saqlaydi. Ozgina iymondan chekinish bo'lsa, shaytoniy hislar, g'alamislik qilib, uning qalbini zabit etadi. Shuning uchun poklik va halollik yo'lida doimo hushyor, sergak turish har bir iymonli kishining, qolaversa, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida faoliyat olib borayotgan shaxsning burchidir.

Shunday qilib, yuqorida tahlil etilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunidan o'rin olgan fazilatlar mustaqil Respublika rahbariyati orzu qilgan va mamlakatning har bir yosh avlodining shaxsida ko'rishni orzu qilgan xususiyatlar hisoblanadi. Hozir mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini qurish hamda rivojlantirish sharoitida jamiyatning har bir yosh avlodni mana shunday ma'naviy-axloqiy kamolotga yetkazish zarur. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyotni va ma’naviy-madaniy hayotni yanada rivojlantirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘p jihatlari mamlakatimiz mehnatkashlarining, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish hamda mazmunli hal qilish bilan bog‘liq. Zero, oldimizda turgan ulkan vazifa, demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurilishini jadallashtirish buni taqozo etadi. Shunday ekan, respublikamiz aholisi ma’naviy-axloqiy tarbiyasining vazifalarini samarali hal etishda har bir jamiyat a’zosi, ayniqsa, pedagog xodimlar jonbozlik ko‘rsatishlari hamda bor kuch, bilim va mahoratlarini ayamasliklari zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmonov Abdulhay. «Saodatga eltuvchi bilim. – T.: Mavarounnah, 2004.
2. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Vohidov Erkin. Saylanma: 2-jildlik, 1-jild. Muhabbatnoma: She’rlar, dostonlar. So‘z boshi muallifi I.G‘ofurov – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – 528 b.
4. Ibrohimov A., Sultonov X, Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi -T.: O‘zbekiston, 1996.-396 b.
5. Nosirxo‘jaev S.H., Lafasov M.F., Zaripov M.Z. Ma’naviyat asoslari //O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2002. – 320 b.
6. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 228 b.
7. Tohir Malik. Shaytanat: qissa. 3-K. – T.: Sharq, 1997. – 384 b.